

OLIV TA'LIMDA MA'NAVIV-MA'RIFIV ISHLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Gafurova Soliya Sattorjonovna

Angren Universiteti Pedagogika va tillar fakulteti inspektori

E-mail: soliyagafurova579680@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oliy ta'limda ma'naviy-marifiy tadbirlarni tashkil etish orqali talabalarda vatanga muhabbat va sadoqat ruxida tarbiyalash, va ularni ma'naviyatli insonlar qilib tarbiyalashga qaratilgandir.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, ma'naviyat, ma'rifat, huquqiy jamiyat, taraqqiyot, jamiyat, farovon hayot.

АННОТАЦИЯ

Целью данной статьи является воспитание студентов в духе любви и верности Родине путем организации духовно-просветительских мероприятий в высших учебных заведениях, воспитание их как духовных людей.

Ключевые слова: Высшее образование, духовность, просвещение, правовое общество, развитие, общество, благополучная жизнь.

Mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar sabab xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda. Qator sohalarda olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator muammolar saqlanib qolmoqda.

Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga nisbatan mas'uliyat va daxldorlik hissini kuchaytirish, sohaga doir ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori e'lon qilindi. Hujjatga ko'ra quyidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish ustuvor masala etib belgilandi:

- ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan -milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

- oila, ta’lim tashkilotlari, jamoatchilik va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviylikini ta’minlash;

- aholining internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunietini kuchaytirish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o‘rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa shu kabi xatarli tahdidlarga qarshi samarali g‘oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish;

- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrup-siya, milliy qadriyat va oilaga nisbatan bexurmat, bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va boshqalar.¹

Mamlakatimiz va xalqimizning har bir soxada kamol topib, taraqqiy etishini ta’minlashning asosiy omili sifatida milliy ma’naviyat ustivor o‘rin egallaydi. Jamiyatda ma’naviyatning rivojidan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyot yuzaga kelib, siyosiy barqarorlik shakllanadi, bu ezgu ish xalqimiz va millat ongida milliy iftixor va g‘urur tuyg‘usini uyg‘otadi. Bu esa o‘z navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zamin bo‘lib xizmat qiladi. Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek “Dunyo shiddat bilan o‘zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustahkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo‘layotgan bugungi kunda ma’naviyat va ma’rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e’tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir”.²

Ma’naviyat-inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha bo‘lib, u kishilarning falsafiy, ijtimoiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy va diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’naviyat atamasi (arabcha-ma’no) ning asosida “ma’no” so‘zi yotadi. Inson, shaxs o‘z-o‘zini o‘rab turgan tevarak olamda ro‘y berayotgan hodisa va jarayonlarning mohiyatini anglashga bo‘lgan ishtiyoq tufayli ibtidodan, bugungi hayotga erishdi. Tadqiqotchi A.Erkaevning fikricha “Ma’naviyat-insoning ijtimoiy-madaniy mavjudot sifatidagi mohiyatidir, ya’ni insonning mehr-muruvvat, adolat, to‘g‘rilik, sofdillik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go‘zallikni sevish, zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko‘plab asl insoniy xislat va

¹ “Ma’naviyat-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-5040-son 2021 yil 26 mart.

² Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz-T.: “O‘zbekiston” NMIU,2017.-27-b.

fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan majmuidir”.¹ Angren universitetida ham ma’naviy ma’rifiy bir qator tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarining samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida:

1. Quyidagilar ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilansin:

ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviyligini ta’minlash;

maqsadida universitetda targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishlaridagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga katta e’tibor qaratilmoqda.

Xulosa qilib aytganda Insoning ma’naviy dunyosi qanchalik boyib borsa, jamiyat va millat shunchalik rivojlanib, ravnaq topadi. Ma’naviyatli inson, yashashdan maqsad nimaligini aniq biladi, shu bois o‘z umrini mazmunli o‘tkazish uchun imkoniyat izlab topadi, bilim va tafakkurga ega inson muomala madaniyatini egallagani bois, har bir masalaga insof va adolat nuqtai nazaridan yondoshadi. Vijdon nima, yolg‘on va rost so‘zlashning oqibati qanday bo‘ladi, or-nomus, halol va harom kabi tushunchalarning nafaqat farqlaydi balki, haromdan xazar qilib, halollikni kasb qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-5040-son 2021 yil 26 mart.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz-T.: “O‘zbekiston” NMIU,2017.-27-b.

3. Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni T. :Ma’naviyat, 1997.

4. Isabekova D.Maktabgacha katta yoshdagi bolalarini kasblar bilan tanishtirish. Science and innovation. 2022 yil.

¹ Erkayev A. Ma’naviyat – millat nishoni T. :Ma’naviyat, 1997